

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 135 (1734), 2026-yil 5-iyul, yakshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



SERGELI – BUNYODKORLIK RUHI VA INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIK UYG‘UNLASHIB, INSON QADRI YUKSALIB BORAYOTGAN YANGI HAYOT MANZILI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 4-iyul kuni Sergeli tumaniga tashrif buyurib, hududdagi bunyodkorlik ishlari va amalga oshirilgan loyihalar bilan tanishdi.



Yangi O‘zbekiston ahli bugun yaratuvchanlik ruhi bilan har kuni yanada balandroq marralar sari intilib yashamoqda. Mamlakatimizda boshlangan keng ko‘lamli islohotlar va uning izchilligi har bir yurtdoshimiz qalbiga ana shunday ko‘tariklilik, ertangi kunga mustahkam ishonch beryapti.

Bunday yangilanishlar yurtimizning barcha hududlarida birdek amalga oshyapti. Xususan, keyingi yillarda poytaxtimizning Sergeli tumani tubdan o‘zgardi. Ilgari bir oz e’tibordan chetda bo‘lgan ushbu hududga yangi O‘zbekiston nafasi kirib borgach, zamonaviy uylar, ijtimoiy-iqtisodiy obyektlar qad rostladi. Hatto mahalliy ishbilarmonlarimiz ham unchalik qiziqish bildirmaydigan tumanda xorijlik sarmoyadorlar yangi loyihalarga bosh qo‘shdi.

Prezidentimiz tumanga tashrifi chog‘ida bunyodkorlik ishlari bilan tanishib, yangi marralarni belgilab berdi. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligiga xizmat

qiladigan yangi tashabbuslarni ilgari surdi.

Davlatimiz rahbari tashrifini tumanning Ittifoq mahallasidagi Yangi Sergeli ko‘chasida amalga oshirilgan ishlar hamda savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari faoliyati bilan tanishishdan boshladi.

Fayzli, ravon yo‘laklar bo‘ylab ekilgan anvoiy gullar bahri dilingizni ochadi. Soyadagi o‘rindiqlar, ko‘kka bo‘y cho‘zgan daraxtlar va favvoralar kishiga huzur bag‘ishlaydi. Hudud bo‘ylab yoqimli qo‘shiq, o‘lmas ohang taraladi. Qator joylashgan savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari aholi xizmatiga shay. Kitob do‘koni, bolalar maydonchalari, nuroniylar maskani hududga yangi hayot nafasi kirib kelganidan darak beradi.

Yangi Sergeli ko‘chasi 24/7 rejimida ishlaydigan hududga aylangach, ana shunday ajoyib manzaraga ega. Umumiy qiymati 18,7 milliard so‘m bo‘lgan ushbu loyiha asosida ko‘chaning 2,1 kilometr qismidagi infratuzilma to‘liq yangi qiyofa kasb etdi. Hudud obod

etilib, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari ishga tushirildi. Bunga qo‘shimcha ravishda bolalar uchun 10 dan ortiq maydoncha, 8 ta vorkaut zonasi tashkil etildi. Ular shahar ahli va mehmonlarga maroqli hordiq chiqarish va sport bilan shug‘ullanish imkonini beradi.

Mamlakatimiz yetakchisi Ittifoq mahallasi bo‘ylab yurib, obodonlashtirilgan ko‘cha, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari hamda aholi uchun yaratilgan qulayliklar bilan tanishdi. Mahalla faollari va fuqarolar bilan samimiy muloqot qildi. Amalga oshirilayotgan ishlar aholi turmush darajasi va farovonligiga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani bilan qiziqdi.

Mahalla faollari so‘nggi yillardagi islohotlar aholi kayfiyati, turmush tarzida ijobiy o‘zgarishlar yasayotganini ta’kidladi. Yangilanib, obod go‘shaga aylantirilgan ko‘cha esa xalqimiz daromadi oshishiga xizmat qila boshlagani, bu yurtdoshlarimizning ertangi kunga ishonchini yanada mustahkamlayotgani e’tirof etildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda bu kabi turizm ko‘chalarini tashkil etish yaxshi an‘anaga aylandi. Bunday ezgu ishlar haqli ravishda xalqimiz quvonchiga sabab bo‘lyapti. Aholi gavjum hududlarda tashkil etilayotgan turizm ko‘chalarini xalqimizga istalgan vaqtda oilasi bilan sayr qilib, dam olish imkoniyatini bermoqda.

Ayni jihat jamiyat, xususan, oilalardagi ijtimoiy muhitga ijobiy ta’sir qiladi. Ota-onani bolaga, bolalarni esa qo‘ni-qo‘shnilar, umuman, mahalla ahliga yaqinlashtiradi. Negaki ota-onalar ishdan horib kelgach, uzoq yo‘l yurib sayrga chiqavermaydi. Turizm ko‘chalarini, bolalar va sport maydonlarining uyg‘a yaqin bo‘lishi oilaviy muhitga shu tariqa ijobiy ruh beradi.

Yana bir muhim jihat. Turizm iqtisodiyotning muhim drayveridir. U yangi ish o‘rinlari yaratib, xizmat ko‘rsatish sohasida sifatini oshiradi. Buni Yangi Sergeli ko‘chasi misolida ham ko‘rish mumkin. Hudud atrofidagi 4 ta mahallada 21 mingdan ziyod aholi istiqomat qiladi. Tunu kun ishlaydigan turizm ko‘chasi esa bu yerdagi ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tubdan yaxshilashga xizmat qiladi. Ya’ni loyiha to‘liq ishga tushgach, yiliga 1,2 milliondan ortiq tashrif buyuruvchiga xizmat ko‘rsatish imkoniyati yaratiladi. Agar Yangi Sergeli ko‘chasidan kuniga o‘rtacha 15-20 mingta avtotransport vositasi harakatlanishini hisobga olsak, bu ko‘chadagi tadbirkorlik subyektlarining ish ko‘lami, shunga yarasha daromadini xomcho’t qilish mushkul emas.

Loyiha doirasida 250 dan ortiq yangi ish o‘rmi ochildi. Yosh tadbirkor, hunarmand Mavjuda Alixonova xotin-qizlar uchun turli taqinchoqlar yasab, liboslar tikadi. Shu vaqtgacha u ishlab chiqarayotgan mahsulotlarini sotishi uchun imkoniyat yo‘q edi. Yangi Sergeli ko‘chasidagi 95 ta mavjud tadbirkorlik subyektlarining faoliyati kengaytirilib, 22 ta yangi tadbirkorlik subyekti tashkil etildi. Shular qatorida yosh tadbirkorning hunarmandlik mahsulotlarini sotish uchun ham alohida joy ajratildi.

Prezidentimiz tashrif buyurgan navbatdagi manzil “Global International Hospital” xususiy ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi bo‘ldi.

So‘nggi yillarda mamlakatimiz sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar davlat tibbiyot muassasalari bilan bir qatorda xususiy tibbiyot tarmog‘ining ham izchil rivojiga yo‘l ochmoqda. Zamonaviy diagnostika va davolash

imkoniyatlarini kengaytirish, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish hamda investitsiyalarni faol jalb etish borasida yaratilgan sharoitlar ushbu yo‘nalishda yirik loyihalar hayotga tatbiq etilishiga zamin yaratdi. Sergelida bunyod etilgan mazkur markaz ham ana shunday yondashuvning amaliy ifodasidir.

Umumiy qiymati 30 million dollarlik loyiha qurilishi 2022-yilda boshlangan edi, joriy yildan to‘liq ishga tushirildi. Keng ko‘lamli qurilish va jihozlash ishlari davomida xalqaro talablarga javob beradigan zamonaviy infratuzilma barpo etildi.

Muassasa yiliga 150 mingdan ortiq aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish quvvatiga ega. Markazda kardiologiya, intervension kardiologiya, neyroxirurgiya, onkojarrohlik, qontomirijarrohligi, ortopediya, ginekologiya, terapiya, nevrologiya, bolalar jarrohligi va urologiyasi kabi ko‘plab yo‘nalishlarda malakali tibbiy yordam ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, fizioterapiya, balneoterapiya hamda tabiiy mineral suvdan foydalangan holda davolash va reabilitatsiya xizmatlari ham yo‘lga qo‘yilgan.

Bu yerga Buyuk Britaniya, Italiya va Germaniyadan keltirilgan, dunyoning yetakchi ishlab chiqaruvchilari tomonidan tayyorlangan tibbiy uskunalar o‘rnatilgan. Xususan, Philips kompaniyasining yuqori anqlikdagi tibbiy jihozlari, magnit rezonansli tomografiyasi, multispiral kompyuter tomografiyasi, rentgen, mammografiya, laboratoriya va instrumental diagnostika uskunalari bemorlarni tezkor hamda aniq tekshirish imkonini beradi.

Markazda 24 soat davomida faoliyat yuritadigan shoshilinch tibbiy yordam va ambulatoriy qabul bo‘limlari tashkil etilgan. Hudud ahli hamda yaqin atrofdagi transport qatnovi yuqori bo‘lgan magistrallarni inobatga olgan holda yo‘lga qo‘yilgan ushbu tibbiy orqali shoshilinch holatlarda birlamchi tibbiy yordamni kechiktirmasdan ko‘rsatish imkonini mavjud.

Bu yerda bemorlar uchun alohida xonalar tashkil etilgan, davolanish uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Loyiha doirasida 250 ta yangi ish o‘rmi yaratilgan. Jamoa safida xorijiy klinikalarda malaka oshirgan 10 dan ortiq yuqori malakali shifokor, shuningdek, xorijdan jalb etilgan tajribali mutaxassislar faoliyat yuritmoqda.

Har qanday jamoa istiqbol uchun harakat qiladi. Yangi tashabbus va g‘oyalar bilan

yashaydi. Shu ma’noda, ushbu klinika tomonidan tibbiy muolajadan tashqari sayyohlik paketlari ham ishlab chiqilgani diqqatga sazovor. Murakkab jarrohlik amaliyotlari, zamonaviy diagnostika va davolash usullari xorijlik bemorlar uchun keng qulayliklar yaratadi. Davolanish jarayonini qo‘shimcha xizmatlar bilan uyg‘un holda tashkil etish maqsadida mehmonlarga sayohat dasturlari taklif etiladi. Bular, tabiiyki, bemorlarga har tomonlama ma’qul keladi.

Klinika jamoasi aholi uchun yana bir xizmatni taklif qilmoqda — mutaxassislar shoshilinch chaqiruvlarga xizmat ko‘rsatadi. Ya’ni bemorlarga zarurat tug‘ilganda shu yerning o‘zida birinchi tibbiy yordam ko‘rsatilib, keyin boshqa ixtisoslashgan tibbiyot muassasalariga yetkazib qo‘yiladi yoki yo‘naltiriladi. Kunduzgi davolanish xonalari tashkil etilgani esa qo‘shimcha muolajalarga ehtiyoj sezgan fuqarolar uchun yanada qulay sharoit yaratadi.

Prezidentimiz tashrif davomida markazda yaratilgan sharoitlar, tibbiy xizmatlarni tashkil etish tizimi hamda istiqbolidagi rejalarni taqdimoti bilan tanishdi. Shuningdek, aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy yordam sifati va ko‘lamini yanada kengaytirish, zamonaviy tibbiy texnologiyalarni izchil o‘zlashtirish, xususiy tibbiyot muassasalari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash yuzasidan tegishli tavsiyalar berdi. Markazni ayrim yo‘nalishlar bo‘yicha tayanch tibbiyot muassasasiga aylantirish muhimligini ta’kidladi. Bu yerda to‘planadigan tibbiyot muassasalari malakasini oshirish va zamonaviy tibbiy xizmatlar qamrovini kengaytirish yuzasidan ko‘rsatmalar berildi.

Mamlakatimiz yetakchisi markaz xodimlari bilan muloqot qilib, aholiga sifatli, zamonaviy va samarali tibbiy xizmat ko‘rsatish masalalariga alohida to‘xtaldi. Bu borada soha mutaxassislarini qo‘llab-quvvatlash, xususiy tibbiyot tashkilotlari sonini ko‘paytirish zarurligi qayd etildi.

— Har bir bemorga sifatli va munosib xizmat ko‘rsatish bilan birga tibbiy va turizm xizmatlarini uyg‘unlashtirish zarur. Bu yo‘nalishni keng targ‘ib qilish, xorij tajribasini o‘rganib, shifoxonalar huzurida mehmonxona infratuzilmasini rivojlantirish kerak, — dedi davlatimiz rahbari.

► Davomi 2-beta



Turli geosiyosiy ziddiyatlar avj olgan hozirgi davrda insoniyat oldida turgan eng ulug‘vor vazifa tinchlik-osoysishtalikni asrash, xalqlar va madaniyatlararo o‘zaro ishonch ko‘priklarini mustahkamlashdir. Ana shunday sharoitda bag‘rikenglik (tolerantlik) shunchaki nazariy tushuncha emas, balki insoniyatning omon qolishi va taraqqiy etishini kafolatlovchi eng muhim qadriyatga aylandi. U barcha xalqlarni totuvlikka, hamjihatlikka va bahamjihat yashashga undaydi.

Prezidentimiz o‘z chiqishlarida hamisha jamiyatda bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini yanada mustahkamlash zarurligini alohida qayd etadi. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “jamiyatda tinchlik va osoysishtalikni mustahkam qaror toptirishning eng muhim tamoyillaridan biri ijtimoiy va diniy bag‘rikenglikdir. Yurtimizda turli konfessiyalar vakillari yagona oila bo‘lib, do‘stlik va hamjihatlik muhitida yashayotgani, jonajon Vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shib kelayotgani bizning eng katta boyligimizdir”. Darhaqiqat, bu jihat ochiq fuqarolik jamiyati, haqiqiy demokratik tizimning eng oliy va o‘ziga xos xususiyatidir.

XXI asr — turli g‘oyalar kurashi o‘ta faollashgan globallashuv asri. Hozir jahonda tinchlik o‘rnatishning eng muhim tamoyillaridan biri,

shubhasiz, bag‘rikenglikdir. Bu borada Prezidentimiz tomonidan ilgari surilayotgan “Yangi O‘zbekiston — inson qadri ulug‘langan, bag‘rikeng va ochiq davlat” g‘oyasi mamlakatimizda yashayotgan 130 dan ortiq millat va elat vakillarining yagona oila bo‘lib jipslashishiga xizmat qilmoqda.

Bag‘rikeng jamiyatda insonlar bir-birining fikri, dunyoqarashi, urfodatlari va qadriyatlarini kamsitmaydi, balki ularni boylik sifatida qabul qiladi. Mana shunday sog‘lom muhitgana mamlakatda barqaror iqtisodiy va ijtimoiy yuksalishni ta’minlay oladi. Zero, bag‘rikenglik shunchaki chidamlilik yoki loqaydlik emas, balki o‘zgalarning madaniyati, dunyoqarashi va qadriyatlarini anglash, ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lish san’atidir.

► Davomi 3-beta



mamlakatimiz xorijiy sayyohlarni jalb qilish bo‘yicha **YUQORI O‘SISH** qayd etilgan **TOP-5 DAVLAT QATORIDA**

6

SERGELI – BUNYODKORLIK RUHI VA INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIK UYGʻUNLASHIB, INSON QADRI YUKSALIB BORAYOTGAN YANGI HAYOT MANZILI

Boshlanishi 1-betda

Oʻzgarish, mazmun-mohiyatiga koʻra, biror narsa yoki holatning avvalgisiga nisbatan yaxshilanishi, yangilanishini anglatadi. Odatda bu soʻz oʻsish, rivojlanish, barqarorlik kabi ijobiy sifatlar bilan bir qatorda qoʻllaniladi.

Sergeli tumanida bundan qariyb oʻttiz yil avval yangi tashkil etilgan mahallaga ayni shu jihatlardan kelib chiqib “Oʻzgarish” deb nom berilgandi



Jahon iqtisodiyoti tarixida mamlakatlarning boʻyligi turli davrlarda turlicha omillar bilan belgilangan. Bir paytlar tabiiy resurslarga ustunlik berilgan boʻlsa, keyingi bosqichda sanoat va kapital asosiy kuchga aylandi. Bugun esa iqtisodiy raqobatning yangi mezonlari, yaʼni bilimni iqtisodiy qiymatga aylantirish qobiliyati shakllanmoqda. Bu oʻzgarishning mohiyati shundaki, XXI asrda mamlakatlarning raqobatbardoshligi yer osti boyliklari bilan emas, balki laboratoriyalarda yaratilgan gʻoyalarning qanchalik tez ishlab chiqarishga, bozorga va eksportga yetib borishi bilan baholanmoqda. Shuning uchun ham innovatsiya endi ilm-fan sohasining ichki masalasi emas, milliy iqtisodiyotning strategik masalasiga aylandi.



“ 2025-YILDA DAVLAT ILMIY DASTURLARI DOIRASIDA 824 TA ILMIY LOYIHA MOLİYALASHTIRILDI. SHU BILAN BIRGA, TIJORIYLASHTIRILGAN ISHLANMALAR ASOSIDA 1,3 TRILLION SOʻMLIK MAHSULOT ISHLAB CHIQARILDI, BUDJETGA 118 MILLIARD SOʻMDAN ORTIQ SOLIQ TUSHUMI TAʼMINLANDI.

Tahlil

ENG QIMMAT RESURS



Asror NOROV, Innovatsion rivojlanish agentligi direktori vazifasini bajaruvchi, iqtisodiyot fanlari doktori

boshladi. Bugun sanoat, qishloq xoʻjaligi, energetika, transport yoki xizmat koʻrsatish sohasi haqida soʻz ketganda ham texnologiya, raqamlashtirish va ilmiy yechimlar iqtisodiy samaradorlikning asosiy sharti sifatida belgilanmoqda. Bu innovatsiyalarga munosabat soʻhaviy yondashuvdan milliy iqtisodiy siyosat darajasiga koʻtarilganini anglatadi.

Eng muhimi, davlat siyosatida sifat jihatidan muhim burilish yuz bermoqda. Ilgari asosiy savol “Qancha ilmiy loyiha moliyalashtirildi?” boʻlgan boʻlsa, bugun asosiy savol boshqacha qoʻyilmoqda: “Ilmiy ishlarni iqtisodiyotga qanday qiymat qoʻshdi?”.

Aynan shu savolga javob berish uchun qabul qilingan qarorlarning oʻziga qarash yetarli emas. Prezidentimiz belgilab bergan ustuvor vazifalar, Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan moliyalashtirilgan 11 mingdan ziyod ilmiy loyiha, mamlakatda tadqiq qilingan va qilinayotgan 160 mingga yaqin doktorlik

dissertatsiyasi hamda ularning iqtisodiyot bilan uygʻunligini yaxlit tizim sifatida tahlil qilish zarur. Chunki innovatsiyalarning haqiqiy qiymati laboratoriyada emas, iqtisodiyotda namoyon boʻladi.

Keyingi yillarda iqtisodiyot, sanoat, investitsiyalar va ilm-fanga doir yigʻilishlarni qiyosiy tahlil qilish bir muhim xulosaga olib keladi: davlat siyosatida innovatsiyaga endi mustaqil tarmoq sifatida emas, balki sanoatni modernizatsiya qilish, mehnat unumdorligini oshirish, import oʻrnini bosish va eksport salohiyatini kengaytirishning asosiy vositasi sifatida qaralmoqda.

Bu yondashuv ilmiy muhitda ham aks etmoqda. Respublikada shakllangan 160 mingga yaqin doktorlik dissertatsiyalari mavzusi bazasi tahlili shuni koʻrsatadiki, keyingi yillarda iqtisodiyotning yangi ehtiyojlari javob beradigan tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Raqamli iqtisodiyot, innovatsion boshqaruv,

sunʼiy intellekt, resurs tejamlorligi, logistika, texnologiyalarni tijoratlashtirish, intellektual mulk va “yashil iqtisodiyot” kabi mavzularning ilm kun tartibiga kirib kelishi bugungi iqtisodiy siyosat bilan uygʻun tendensiya ekanini koʻrsatadi.

Tahlil yana bir muhim tendensiyaning koʻrsatadi: doktorlik dissertatsiyalari mavzularining oʻzgarishi faqat ilmiy muhitdagi jarayon emas, balki iqtisodiyot transformatsiyasining intellektual inʼikosidir. Ilgari yillarda tadqiqotlar koʻproq soʻhaviy muammolarni hal qilishga qaratilgan boʻlsa, bugungi mavzular iqtisodiyotning raqamlashuvi, resurslar samaradorligi, sunʼiy intellekt, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish va innovatsion boshqaruv masalalariga tobora koʻproq yoʻnalmogʻda. Bu davlat siyosati bilan ilm kun tartibi oʻrtasidagi muvofiqlik kuchayayotganini anglatadi. Shu bilan birga, mazkur tendensiyaning muammasi tahlil qilib borish iqtisodiyot uchun kelgusi yillarda qaysi sohalar yuqori malakali kadrlar va yangi texnologiyalarga ehtiyoj ortishini oldindan prognoz qilish imkonini yaratadi.

Biroq mazkur tahlil yana bir muhim haqiqatni ham ochib beradi. Ilmiy tadqiqotlar soni ortishi har doim ham iqtisodiy natijaning oʻlchovini anglatmaydi. Masalan, iqtisodiyot uchun strategik ahamiyatga ega texnologiyalar transferi, ventchur moliyalashtirish, yuqori texnologiyali eksport yoki intellektual aktivlarni boshqarish kabi yoʻnalishlarda ilmiy ishlar hali iqtisodiyot ehtiyojlariga mutanosib darajada emas. Demak, ilmiy siyosatning keyingi bosqichida faqat tadqiqotlar sonini oshirish emas, balki ularning tarkibi va iqtisodiy ahamiyatiga ham alohida eʼtibor qaratish talab etiladi.

Xuddi shunday holat davlat tomonidan moliyalashtirilayotgan ilmiy loyihalar tahlilida ham kuzatiladi. 11 ming 548 ta ilmiy loyihani qiyosiy tahlil qilish davlat investitsiyalari

koʻrish mumkin. Davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlangan qator ishlarni qabul qilish texnologiyalari, qurilish sanoati uchun mahalliy kimyoviy qoʻshimchalar, tibbiyotda zamonaviy diagnostika yechimlari va raqamli intellektual tizimlar koʻrinishida amaliyotga joriy etildi. Muhimi, ushbu ishlarni amalga oshirish import oʻrnini bosishga, bir qismi esa eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga xizmat qilmoqda. Bu innovatsiyalarning iqtisodiy qiymati laboratoriyada emas, ishlab chiqarish jarayonida shakllanishini yana bir bor tasdiqlaydi.

Eʼtiborli jihati shundaki, davlat endi ilmiy gʻoyaning oʻziga emas, uning iqtisodiy natijasiga sarmoya kiritmoqda. Buni Innovatsion rivojlanish agentligi faoliyati ham tasdiqlaydi. 2025-yilda davlat ilmiy dasturlari doirasida 824 ta ilmiy loyiha moliyalashtirildi. Shu bilan birga, tijoriylashtirilgan ishlarni amalga oshirish 1,3 trillion soʻmlik mahsulot ishlab chiqarildi, budjetga 118 milliard soʻmdan ortiq soliq tushumi taʼminlandi. Bu raqamlar ilm-fanga ajratilayotgan mablagʻlar xarajat emas, iqtisodiy investitsiyaga aylanayotganining amaliy isbotidir.

Bugun innovatsiyalarning iqtisodiy samarasini baholashda yana bir muhim yondashuv shakllanmoqda. Ilmiy loyiha boʻyicha qiymati uni yaratish uchun sarflangan mablagʻ bilan emas, balki iqtisodiyotga keltirgan qoʻshimcha qiymati bilan oʻlchanishi lozim. Agar yangi texnologiya ishlab chiqarish xarajatini kamaytira, import oʻrnini bossa, eksportni oshira yoki yangi ish oʻrinlari ochsa, davlat tomonidan ilm-fanga yoʻnaltirilgan sarmoya oʻzining iqtisodiy vazifasini bajargan boʻladi. Shu maʼnoda, innovatsion siyosat samaradorligini baholash mezonlari ham bosqichma-bosqich natijaga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida takomillashib bormoqda.

Shu bilan birga, tahlillar innovatsiyalarning iqtisodiyotga joriy etilishida eʼtibor qaratish lozim

boʻlgan jihatlari ham mavjudligini koʻrsatadi. Ilmiy natija yaratish bilan uni ishlab chiqarishga joriy etish oʻrtasidagi vaqt ayrim hollarda uzoq davom etmoqda. Bunga texnologiyalar transferi, xususi sektor ishtirokining cheklangani va bozor talablari bilan ilmiy izlanishlar oʻrtasidagi muvofiqlashtirish mexanizmlari yetarli darajada shakllanmagani taʼsir qilmoqda. Keyingi bosqichda innovatsiyalar siyosati aynan ushbu boʻgʻinlarni mustahkamlashga qaratilishi zarur.

Tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, Oʻzbekiston innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning yangi bosqichiga kirdi. Ilmiy salohiyat shakllandi, huquqiy asoslar yaratildi, davlat tomonidan moliyalashtirish tizimi takomillashirildi va tijoriylashtirishning dastlabki natijalari paydo boʻldi. Endi asosiy vazifa mazkur omillarni yagona innovatsion ekotizimga aylantirishdir. Buning uchun ilmiy muassasalar, universitetlar, tadbirkorlik subyektlari va investitsiya institutlari oʻrtasida barqaror kooperatsiyani taʼminlash kelgusi iqtisodiy oʻsishning hal qiluvchi shartlaridan biriga aylanadi.

Bugungi sharoitda navbatdagi vazifa ilmiy loyihalar sonini koʻpaytirish yoki grantlar hajmini oshirish emas, balki innovatsiyalarni boshqarish sifatini yangi bosqichga olib chiqishdir.

Dunyo tajribasiga koʻra, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning eng qiyin bosqichi ilmiy gʻoyani yaratish emas, balki uni iqtisodiy aylanmaga kiritishdir. Aynan shu bosqichda davlat siyosati, ilm-fan, biznes va moliya institutlari yagona tizim sifatida ishlashi talab etiladi. Oʻzbekistonda soʻnggi yillarda qabul qilingan qarorlar ana shu tizimni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Endi ushbu mexanizmlarning samaradorligi ularning qanchalik tez va keng koʻlamda iqtisodiyotning real sektoriga kirib borishi bilan belgilanadi.

Yuqoridagi tahlillar Oʻzbekistonda innovatsion iqtisodiyot uchun zarur huquqiy baza, davlat qoʻllab-quvvatlovi va ilmiy salohiyat shakllanganini koʻrsatadi. Endi asosiy eʼtibor mazkur resurslarning oʻzaro integratsiyasiga qaratilishi lozim.

Birinchidan, davlat ilmiy dasturlari iqtisodiyotning uzoq muddatli tarmoq strategiyalari bilan toʻliq uygʻunlashtirilishi kerak. Ilmiy tadqiqot mavzusi bozor ehtiyojidan emas, bozor ehtiyoji ilmiy tadqiqotdan ortda qolmasligi lozim.

Ikkinchidan, ilmiy natijalarni baholash tizimi qayta koʻrib chiqilishi zarur. Asosiy mezon maqola yoki dissertatsiyalar soni emas, balki iqtisodiyotga joriy etilgan texnologiyalar, yaratilgan mahsulotlar, eksport hajmi va davlat investitsiyalarining iqtisodiy qaytami boʻlishi kerak.

Uchinchidan, respublikada shakllangan doktorlik dissertatsiyalari va davlat tomonidan moliyalashtirilgan ilmiy loyihalar bazasi asosida iqtisodiyotning kelgusi texnologik ehtiyojlarini prognoz qiluvchi milliy analitik platformani ishga tushirish maqsadga muvofiq. Bu davlat buyurtmalari va ilmiy siyosatni aniq maʼlumotlar asosida shakllantirish imkonini beradi.

Toʻrtinchidan, Innovatsion rivojlanish agentligi faoliyatida tijoriylashtirishning keyingi bosqichiga oʻtish, yaʼni xususiy investitsiyalar, ventchur kapital va yirik sanoat korxonalarini innovatsion jarayonlarning toʻlaonli ishtirokchisiga aylantirish ustuvor vazifa boʻlishi lozim. Bu takliflarning amalga oshirilishi ilmiy gʻoyalardan, davlat siyosati va iqtisodiyot oʻrtasidagi bogʻliqlikni yanada mustahkamlaydi.

Chunki raqobat kurashi endi resurslar uchun emas, bilim uchun ketsmoqda. Yangi Oʻzbekistonning iqtisodiy taraqqiyoti ham aynan shu ustunlikdan qanday foydalana olishimizga bogʻliq.

yetib bormoqda. Aholi, maktab oʻquvchilari, yoshlar zamon talablariga mos transportlarda xavfsiz harakatlanyapti. Eng muhimi, yoʻl boʻyida yangi xizmat koʻrsatish shoxobchalari, tadbirkorlik obyektlari barpo etilmoqda. Loy va chang koʻchalar tarixga aylanib, oʻrnini ravonlik va koʻrkamlik egallamoqda.

— Choʻl hududida tabiiy taʼsir kuchliligi sababli yoʻllar juda ham mustahkam va sifatli boʻlishi lozim, — deydi Tomdi tumani yoʻllardan foydalanish boshqarmasi bosh muhandisi Nursulton Bozorboyev. — Ayni vaqtda A-379 avtomobil yoʻlining 140-143 kilometr oraligʻi toʻliq taʼmirlanmoqda. T-191 yoʻlining yaroqsiz qismlariga yangi asfalt qoplangaypti. Shuningdek, ichki yoʻllarda ham taʼmirlash jarayoni davom etmoqda. Jumladan, Navroʻz koʻchasida 1,5, Turibi koʻchasida 2,5 kilometr yoʻl toʻliq taʼmirlanmoqda. Ilgari markazdan chekka ovullarga yetib olish soatlab vaqt olgan boʻlsa, bugun yangi yotqizilayotgan asfalt koʻchalar tufayli manzilga tezroq yetib olish imkonini kengaytgan.

Albatta, uzoq yillar Tomdi va Zarafshonni bogʻlovchi, shuningdek, olis ovullarga eltuvchi ichki yoʻllar mahalliy aholi va haydovchilar uchun katta sinov edi. Ayniqsa, chekka ovullardan bemorni tuman markaziga yoki Zarafshon shahridagi shifoxonalarga olib borish soatlab vaqt olardi. Har bir chaqirim zahmat va mashaqqatdan iborat boʻlgan. Iqtisodiy yuksalish va aholi farovonligi haqida gapirish uchun esa, avvala, mana shu ogʻir jihatlarga barham berish kerak edi. Soʻnggi yillardagi islohotlar tufayli bu muammolar bosqichma-bosqich bartaraf etildi.

Navoiy viloyati sanoati bilan mamlakatimiz iqtisodiy rivojida oʻz oʻrniga ega. Biroq bu iqtisodiy quvvatni taʼminlab beruvchi eng muhim omil xavfsiz va ravon yoʻllardir. Sahro bagʻrida bunyod etilayotgan va taʼmirlanayotgan, zamonaviy qiyofa kasb etayotgan ravon yoʻllar hududlarning iqtisodiy qudratini oshiradi, odamlarni bir-biriga yaqin qiladi.

Gʻolib ABDUSALOMOV, “Yangi Oʻzbekiston” muxbiri

Islohot odimlari

Bundan yetti-sakkiz yil avval ayrim hududlardagi yoʻllar aholi uchun jiddiy muammo va yechilmas masalalardan edi. Nosoz yoʻllar koʻplab qiyinchiliklarni yuzaga keltirardi. Tizimdagi islohotlar natijasida yoʻlsozlik ham yangi bosqichga koʻtarildi. Hududlardagi yoʻllarni taʼmirlashda avtomobil qatnovi bilan birga piyodalar xavfsizligiga ham alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Oʻtgan yillarda bu borada Navoiy viloyatida ham salmoqli ishlar qilindi. Ayni vaqtda hududda 9496 kilometr avtomobil yoʻli mavjud. Shundan 4055 kilometri umumiy foydalanishdagi, 354 kilometri xalqaro, 2571 kilometri davlat darajasidagi, 1130 kilometri mahalliy ahamiyatga ega yoʻllar.

— Viloyatimizda 5441 kilometr ichki yoʻl mavjud. Shuningdek, 367 ta koʻpriklar va yoʻl oʻtkazgichlarning 266 tasi umumiy foydalanishdagi va 101 tasi ichki xoʻjalik avtomobil yoʻllarida joylashgan, — deydi

Navoiy viloyati avtomobil yoʻllari bosh boshqarmasi axborot xizmati rahbari Dilshod Bahrinov. — Viloyatda 2026-yilning oʻtgan davrida 74,8 kilometrda taʼmirlash ishlari bajarildi. Hozir boshqa hududlarda ham ishlar davom ettirilmoqda. Bundan tashqari, xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yoʻlining 198 kilometridan Zarafshon shahriga kirib keluvchi 3,5 kilometrdan iborat yangi avtomobil yoʻli barpo etildi. Bu yerda ikki tomondan ham piyodalar va velosiped yoʻlaklari qurish rejalashtirilgan. Yoʻlning ikki tomonida yashil



hudud barpo etiladi. Hozir Yangi Navoiy shaharchasiga olib boradigan 4 yoʻnalishli yangi yoʻl ham yotqizilmoqda.

Choʻl hududida yoʻllarni sozlash va mustahkamlash qum koʻchishi, shamol eroziyasi hamda harorat keskin oʻzgarishini hisobga olgan holda maxsus yondashuvlarni talab qiladi. Qizilqum sahrosida masofalar faqat chaqirimlar bilan emas, vaqt va mashaqqat bilan ham oʻlchanadi. Chekka hududlardagi yoʻl infratuzilmasini yaxshilash boʻyicha qabul qilingan tarixiy qarorlar Qizilqum bagʻriga ham yangi hayot nafasini olib kirdi. Davlat va investitsiya dasturlari doirasida Tomdi tumani hamda Zarafshon shahri oʻrtasidagi, shuningdek, mahalla va ovullardagi yoʻllarni tubdan rekonstruksiya qilish va taʼmirlash uchun katta

mablagʻ yoʻnaltirilgan. Bu shunchaki mahalliy ahamiyatdagi ish emas, balki butun vohaning ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasini oʻzgartirishga qaratilgan strategik qadam boʻldi.

Har bir loyiha sahradagi iqlim sharoiti, havo haroratining keskin oʻzgarishi va ogʻir yul mashinalarining harakatlanish intensivligi hisobga olingan holda ishlab chiqildi. Bundan maqsad yillar davomida sifatini yoʻqotmaydigan, xalqqa uzoq muddat xizmat qiladigan infratuzilma yaratishdir. Mutaxassislarning puxta hisob-kitobidan soʻng amaliy ishlar boshlab yuborildi.

Yillar davomida chang va notekis yoʻldan zahmat chekkan bu zamin bugun katta qurilish maydoniga aylandi. Bu yerdagi yoʻllar yirik sanoat korxonalarini texnikasi va yul mashinalari

uchun ham xizmat qiladi. Shu sababli shahar koʻchalar va unga tutash yoʻllarni taʼmirlashda asosiy urgʻu sifat va bardoshlilikka qaratilmoqda. Mutaxassislar har bir qatlamning zichligini, geometrik toʻgʻrilligini qatʼiy nazoratga olgan. Shu bois, Zarafshon shahridagi yoʻllar bugun zamonaviy infratuzilma koʻzgusiga aylanmoqda. Bundan tashqari, shaharni Tomdi tumani bilan bogʻlovchi yoʻl ham doimiy eʼtibordir.

Choʻl bagʻrida joylashgan Tomdi tumani viloyat markazidan ancha olis boʻlsa-da, bagʻrikeng hudud, tarqoq ovullar makoni. Ilgari markazdan ajralib qolganek yugulgan ovullar bugun yangi yoʻllar orqali yagona zanjirga bogʻlandi. Yoʻl yetib borgan joyga fayz-baraka kiradi. Yangi ravon yoʻllar tufayli chekka ovullarga tez tibbiy yordam mashinalari bir necha daqiqada

Prezidentimiz 30-iyun — Yoshlar kunida yoshlar bilan o‘tkazgan uchrashuvida O‘zbekistonda giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish masalasiga alohida to‘xtalib, “Bugun narkotik va psixotrop moddalar bilan bog‘liq jinoyatlar aholi genofondiga jiddiy tahdid solmoqda. Bunday jinoyatlarning uchdan biri yoshlar tomonidan sodir etilayotgani juda xavot

6 Turizm mamlakatni dunyoga tanitish, yangi ish o‘rinlari yaratish va xizmatlar eksportini kengaytirishning samarali yo‘nalishlaridan biri.

YANGI O‘ZBEKISTON

Nuqtayi nazar

YURTIMIZNING TURIZM QIYOFASI

mamlakatimiz xorijiy sayyohlarni jalb qilish bo‘yicha
YUQORI O‘SISH qayd etilgan TOP-5 DAVLAT QATORIDA

Alisher ESHTAYEV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor



“soyadan chiqarish” (yashirin iqtisodiyotdan qonuniy sektorga o‘tkazish) orqali 40 mingta ish o‘rni tashkil etish, sohani loyihaviy boshqaruv tizimiga o‘tkazib 31 ta turizm obyektni tashkil etish asosiy maqsad qilib belgilangan.

Mamlakatimiz 2026-yilning dastlabki uch oyida xorijiy sayyohlarni jalb qilish bo‘yicha dunyoda eng yuqori o‘sish qayd etilgan TOP-5 davlatlar qatoriga kirgan. Bu ma‘lumotlar jahon turizm bozorida raqobatning tobora kuchayib borayotganini ko‘rsatadi.

Jahon turizm bozorida rivojlangan davlatlar ham o‘z o‘rmini mahkam ushlab turishga, zamonaviy turizm tendensiyalariga moslashishga harakat qilmoqda. Buning asosiy sabablari mazkur soha barcha davlatlar uchun sardoromad ekani, qolaversa, turizmni rivojlantirishda yangi ish o‘rinlarini yaratish asosiy omillardan biri ekani, ya‘ni turizmga yaratilgan 1 ta ish o‘rni boshqa sohalarda qo‘shimcha 2 ta ish o‘rni yaratilishiga olib kelishi bilan izohlanadi.

Turizmning mamlakat iqtisodiyoti va aholi farovonligi uchun naqadar muhim ahamiyat kasb etishi, ko‘plab ish o‘rni va daromad manbai ekani haqida gap ketganda, Prezidentimizning Marg‘ilon shahridagi “Burhoniddin Marg‘inoniy” ilmiy-ma‘rifiy va turizm majmuasining ochilish marosimidagi nutqida keltirilgan quyidagi fikrlari o‘rinlidir.

“So‘nggi yillarda milliy me‘morchilik yechimlarini qo‘llagan holda tarixiy va zamonaviy an‘analarni mujassam etgan yirik turistik majmualar barpo etishga alohida e‘tibor beraymiz. Xususan, Samarqandda “Buyuk ipak yo‘li” va Imom Buxoriy majmualari, Xorazmda

“Arda Xiva” xalqaro turizm markazi ishga tushirildi.

Yaqinda azim poytaxtimizda ochilgan, Yangi O‘zbekiston duronasi sifatida e‘tirof etilayotgan Islom sivilizatsiyasi markazi ham bu borada ulkan qadam bo‘ldi. Ta‘kidlash kerakki, ushbu majmua ekspozitsiyasida Farg‘ona tarixiga alohida o‘rin ajratilgan. Bu maskanda to‘rtta yirik portaldan bittasi Qo‘qon portali deb ataladi, Birinchi Rennessansning buyuk namoyandalari — Ahmad Farg‘oniy va Burhoniddin Marg‘inoniy bobolarimiz faoliyati atroflicha yoritilgan. Bularning barchasi — Farg‘ona viloyatiga, bu zamin farzandlariga



yuksak hurmat va ehtirom ifodasi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz”.

Shu o‘rinda aytish mumkinki, “Burhoniddin Marg‘inoniy” ilmiy-ma‘rifiy va turizm majmuasi to‘liq ishga tushgach, viloyatga yiliga o‘rtacha 200-250 ming nafar xorijiy sayyoh jalb etilishi kutilmoqda. Buning natijasida 2 mingta ish o‘rni yaratiladi, byudjetga 52 milliard so‘m tushum va 30 million dollarlik xizmatlar eksporti ta‘minlanadi.

Butunjahon turizm tashkiloti ma‘lumotlari tahliliga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, dunyodagi notinch vaziyatlarga qaramay xalqaro turizm bozorida 2026-yilning birinchi choragida xorijiy

turistlarning davlatlar bo‘ylab tashrif 2 foizga oshganiga guvoh bo‘lamiz. Ya‘ni 2026-yilning birinchi choragida 307 million turist xalqaro sayohatni amalga oshirgan, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan qariyb 6 million nafarga ko‘p.

Bugungi jahon turizm bozori oldingisidan tubdan farq qiladi. Endilikda ommaviy turizmdan individual turizmga o‘tish, turizmning kreativ turlari, xususan, yuqori daromadli sayyohlik hisoblangan lyuks (Luxury) turizmga, bundan tashqari MICE (biznes va korporativ maqsadlarga qaratilgan ishbilarmonlik turizmi), shopping (savdo va xarid turizmi), tibbiy, ta‘lim, ziyorat, ekologik, gastronomik kabi turlarga talab kuchaymoqda.

Jahon turizm bozorida taassurotlarga asoslangan sayohatlar ham rivojlanayapti. Odamlar endi faqat mashhur joylarni ko‘rishnigina emas, balki mahalliy madaniyat, taomlar va an‘analarni his qilishni xohlamoqda. Shu sababli turizm bozorida gastronomik, madaniy va etnografik turizm tez sur‘atlarda rivojlanayotir.

Yurtimizda ham agroturizm, ekoturizm va ekstremal turizm imkoniyatlarini birlashtirgan 508 gektar maydonni egallagan “Karkidon” turizm majmuasida 45 ta shale, 57 ta zamonaviy mehmon uyi, agroturizm majmuasi, gullar bog‘i, lavandazor, ekobozor, sokin hududlar va restoranlar tashkil etilgan.

Turizm mamlakatni dunyoga tanitish, yangi ish o‘rinlari yaratish va xizmatlar eksportini kengaytirishning samarali yo‘nalishlaridan biri. Shu bois, Taxtako‘pir tumanida Qoratereng ko‘li, Xonobod tumanida sun‘iy ko‘l, Xatirchi tumanida “Ko‘ksaroy” suv ombori, Pop tumanida Arashan ko‘li, Nurobod tumanida “Sobirsoy” va Kattaqo‘rg‘on tumanidagi “Kattaqo‘rg‘on” suv omborlari atrofida ham yirik turizm majmualarini barpo etish rejalashtirilgan.

Yangi O‘zbekistonni barpo etishda turizm sohasini rivojlantirish maqsadida davlat tomonidan bir qator ustuvor vazifalar belgilangan. Xususan, Prezidentimizning 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish belgilangan. Bunda 2030-yilga borib, mamlakatimizda turizm sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 7 foizga, turizm xizmatlari eksportini 6 milliard dollarga, mamlakatimizga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar yillik sonini 20 millionga yetkazish, “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil” dasturi doirasida ichki sayyohlarning respublika bo‘ylab 25 millionta safarini amalga oshirish, xususiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga turizm klasterlari sonini 25 taga yetkazish ko‘rsatib o‘tilgan.

Davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan turizm sohasini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish hamda hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirishga katta e‘tibor qaratildi. Sa‘y-harakatlar natijasida joriy yilning besh oyida O‘zbekistonga 5 million 352 ming xorijiy sayyoh tashrif buyurgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 30 foizga yuqori. Ularga ko‘rsatilgan turizm xizmatlar eksporti hajmi esa 2,2 milliard dollarni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 38 foizga o‘sgan. Mamlakatimizga davlatlar kesimida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan Xitoydan 3,4 barobar, Malayziyadan 2,1, Yaponiyadan 1,6, Rossiyadan 1,4, AQSH, Germaniya va Fransiyan 1,3 barobar, Britaniyadan 20 foiz va Turkiyadan 19 foiz ko‘p sayyohlar tashrif buyurgan.

Ichki turizmni rivojlantirish maqsadida “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil” dasturi doirasida respublika bo‘ylab qariyb 9,8 million mahalliy aholi sayohatlari tashkil etilgan.

Turistlariga xizmat ko‘rsatuvchi 302 ta turizm tashkiloti tashkil etilib, ularning soni 4,7 mingtaga yetdi. Joriy yilning o‘tgan davrida jami 488 ta joylashtirish vositalari, shu jumladan, 74 ta mehmonxona, 212 ta oilaviy mehmon uylari, 139 ta xostel va 63 ta boshqa turdagi joylashtirish vositalari tashkil etilib, ularning soni 7,3 mingtaga, o‘rinlar soni esa 199,7 mingtani tashkil qiladi. Hududlarda turizm qishloqlari va turizm mahallalarini tashkil etish ishlari davom ettirilmoqda. Bugungi kunda ular soni 44 taga yetkazildi.

Turizm sohasida raqamlashtirish yo‘nalishida Milliy turizm yagona platformasini joriy etish ishlari olib borilmoqda. Platforma doirasida mehmonxonalarni bron qilish, avia va temir yo‘l chiptalarini xarid qilish, muzey va madaniy meros obyektlariga onlayn chipta sotib olish hamda turistik xizmatlar statistikasini yuritish imkoniyatlari yaratildi.

Oilaviy mehmon uyi va xostellarni reyestrga kiritish axborot tizimi yangi talqinda ishlab chiqilib, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga integratsiya qilindi.

Albatta, mamlakatimizga xorijdan kelayotgan turistlar oqimini oshib borishini ta‘minlash maqsadida zamonaviy turizm turlarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Mamlakatimizga tashrif buyurayotgan turistlarning asosiy qismi tarixiy-madaniy turizm, ya‘ni tarixiy shaharlar, obidalar, madaniy meros obyektlari va ziyoratgohlarga kelayotganini alohida ta‘kidlash lozim. Buning mavsumiylikka bog‘liqligi hamda tashrif buyurayotgan turistlarning asosiy qismi nafaga yoshida ekanligi sababli yoshlarni ham keng jalb qilish maqsadida turizmning boshqa turlarini, ya‘ni MICE, tibbiy, ta‘lim, sog‘lomlashtirish, ziyorat, ekologik, agrar, gastronomik, etnografik, tog‘ turizmi kabi turlarini ham rivojlantirish, turistlarning oqimi past hududlarda yangi turizm klasterlari va sog‘lomlashtirish majmualarini tashkil etish, madaniy meros obyektlarini raqamlashtirish, sohada ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish joriy qilishning samarali mexanizmini tatbiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

DUNYO TAN OLGAN KULOLLIK SAN‘ATI

Kulollar ustaxonasiga hunar o‘rgangani kelganimda 12 yoshda edim. Ko‘hna yurtning mohir ustalari Elbek Daliyev, Abduqodir Kimsanboyevdan an‘anaviy kulollik sirlarini o‘rganib, mustaqil faoliyat ko‘rsatib kelayotganimga ham yarim asrdan ortiq vaqt o‘tdi.



Alisher NAZIROV,
kulol, “Shuhrat” medali sohibi

Rishton kulollik maktabi an‘analari ming yillik tarixga ega. Oddiy tuproqdan mo‘jiza yaratayotgan kulollar yasagan buyumlar dong‘i dunyoga ketgan. Sopol buyumlar sifatini bilishni xohlovchilar uni qo‘liga olib, bir chertib ko‘rsa kifoya. Undan taralgan tovush misoli kuyga aylanib, uzoq vaqt jaranglab turadi. Har bir buyumni yaratish uchun kuloldan mehnat, qunt, sabr talab qilinadi. Oddiy piyola tayyor holga kelguncha bir necha bor qo‘ldan qo‘lga o‘tadi. Unda aks etgan har bir chiziq, tasvir, ranglar uyg‘unligi juda muhim.

Asosiy e‘tiborni an‘anaviy kulollik maktabiga xos rang-tasvirlarni saqlash va rivojlantirishga qaratganmiz. Masalan, lojuvard-moviy rang inson qalbiga ulug‘vorlik bag‘ishlab, g‘alaba sari da‘vat etadi. Mis-



Hunarmandlik

feruza, malhash-qo‘ng‘ir, zardpazlik-sariq, safedpazlik-oq ranglar ko‘hna kulollik an‘analari rivoji va bugungi taraqqiyotida katta ahamiyatga ega. Avlodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan va tabiiy g‘iyohlardan tayyorlangan ranglar o‘zaro uyg‘unlashib,

buyumlarga o‘ziga xos joziba beradi, asrlar davomida o‘z ko‘rinishini yo‘qotmaydi.

Kulollik desa, ko‘pchilik uy-ro‘zg‘or buyumlari, idish-tovoqni tushunadi. Bunday qarashlar noto‘g‘ri. U xalq amaliy san‘atining bebaho duronasi. Ularda milliy

madaniyatimiz, urf-odat, o‘tmish bilan bugungi hayot tarzi, an‘analarni mujassam. Buni asl holda saqlab qolish, rivojlantirish esa muhim amallardan. Shogird bo‘lib yurganimda ustozim “Qani, avval loyga salom bering” deb oddiy loyga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni, halol-pok bo‘lib ish boshlashni talab qilardi.

Bir muddat rivojlanishdan to‘xtab qolayotgan kulollik maktabi keyingi o‘n yillikda yana gullab-yashnay boshladi. Prezidentimiz tashabbusi bilan bunyod etilgan Xalqaro hunarmandlar markazi ustalarimiz g‘ayratiga g‘ayrat qo‘shdi. Bu yerda kulollik maktabidagi milliy an‘analarni o‘z holicha saqlab qolish, yanada boyitish yo‘lida samarali izlanishlar qilinayapti. Kulollarga qator imtiyoz va imkoniyatlar berildi. Ular daromad solig‘idan ozod etilgan. Xalqaro miqyosda savdo va ko‘rgazmalarda ishtirok etishda ham qator imtiyozlar berildi. Xomashyo bilan bog‘liq muammolarga amaliy yechim topilgani ayni muddao bo‘lmoqda.

Kechagidek esimda. Nukus shahrida Prezidentimiz bilan tadbirkorlar muloqotida Rishtonda an‘anaviy kulollik tarix muzeyini tashkil etish taklifini bildirgandim. Davlatimiz rahbari bu taklifni qo‘llab-quvvatlab, qisqa vaqtda taklifimga amaliy yechim topildi. Xalqaro

hunarmandlar markazi hududida Rishton an‘anaviy kulollik muzeyi tashkil etildi. Rishtonga Xalqaro hunarmandlar shahri, M.Topiboldiyev nomidagi mahallaga “turizm mahallasi” maqomi berildi. Alisher Navoiy nomidagi mahalla fuqarolar yig‘inida “Kulollar shaharchasi” sanoat zonasi tashkil etildi. Bu yerda oddiy qizil tuproqdan loy, tayyor va yarimtayyor sopol buyumlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan o‘ndan ortiq tadbirkorlik subyekti faoliyat yuritmoqda.

Bularning barchasi “usta-shogird” maktabi asosida kulollik an‘analarni puxta o‘rganish, saqlash va rivojlantirishda yangi imkoniyat eshiklarini ochdi. Bu yerda murakkab va nafs naqshlar o‘ziga xos uslubda yaratilgan, bir-birini takrorlamagan serjilo mahsulotlarga alohida o‘rin ajratilgan. Kulollar ustaxonasiga oddiy tuproqdan noyob asar yaratilishi jarayoni bilan qiziqqan sayyohlar, mehmonlar kelishi kundan kunga ortib bormoqda. Ular bu yerda istiqomat qilish, sopol buyumlarni tayyorlash jarayonida bevosita ishtirok etish imkoniyatiga ega.

Keyingi ikki yilda Turkiya, AQSH, Xitoyda an‘anaviy kulollik maktabi asosida tayyorlangan shaxsiy ko‘rgazmalarimni namoyish etdim. Ayni kunda Yaponiyada bo‘lishi rejalashtirilayotgan nufuzli ko‘rgazmaga hozirlik ko‘ryapman.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Qabulxona: (71) 233-56-33
E‘lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.

E-mail: info@yuz.uz
Be6-cafir: www.yuz.uz; (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-746.
29609 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqoq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Dilshod Ulug‘murodov
Musahhir: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy